O‘ZBEKISTON BOZORLARIDA MAHSULOTLAR SIFATINI NAZORAT QILISH SOHASIDAGI MUAMMOLAR

Ahmedova Sitora Asqar qizi
Qarshi davlat texnika universiteti, talaba.
Maxmonov Uktam Ashirovich
Qarshi davlat texnika universiteti, dotsent. Ilmiy rahbar:

Annotatsiya. Ushbu maqolada ichki bozorlarimizga kirib keluvchi mahsulotlarning sifatini nazorat qilish masalalari, bu sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimlari haqida mualliflarning takliflari va xulosalari bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: ichki bozor, mahsulot sifati, sifat nazorati, raqobat, iste’molchi, huquqiy ong, iste’molchi madaniyati.
Аннотация. В данной статье излагаются вопросы контроля качества поступающей на наши внутренние рынки продукции, предложения и выводы авторов о существующих проблемах в данной сфере и их решениях.
Ключевые слова: внутренний рынок, качество продукции, контроль качества, конкуренция, потребитель, правосознание, культура потребления.
Annotation. This article describes the proposals and conclusions of the authors about the issues of quality control of products entering our domestic markets, the existing problems in this area and their solutions.
Keywords: domestic market, product quality, quality control, Competition, Consumer, Legal consciousness, consumer culture.

Kirish.

Ma’lumki, har bir mamlakatning obodonligi va farovonligi, aholisining yashsash sharoiti undagi ichki bozorlarning to‘kin-sochinligi va narx-navolarning ko‘rtsatkichi bilan baholanadi. Bizning mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi va qo‘llab-quvvatlashlari bilan tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda, bu esa o‘z navbatida mamlakat ichki bozorlarining tadbirkorlarimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahalliy tovarlar bilan to‘ldirilishiga va keng savdosiga shart-sharoitlar yaratib bermoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonning ichki bozorlarida jami 1,45 kvadrillion so‘m miqdorida mahsulot aylanmasi kuzatilgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yildagi 1,192 kvadrillion so‘mga qaraganda 6,5 foizga yuqori demakdir.

2024-yilda O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YIM) 115 milliard dollarga yetgan. Bu mamlakat iqtisodiy o‘sishi 6,5 foizga o‘sganligini ko‘rsatadi. YIMning o‘sishi, shu jumladan, ichki bozorlardagi mahsulot aylanmasining o‘sishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbekistonning ichki bozorida sotiladigan mahsulotlar juda xilma-xil bo‘lib, ularni bir qancha asosiy toifalarga bo‘lish mumkin bularga oziq-ovqat

ISSN 3030-3907

mahsulotlari, sanoat va ishlab chiqarish mahsulotlari, to‘qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlari, avtomobillar va transport vositalari hamda ularning ehtiyot qismlari, farmatsevtika va sog‘liqni saqlash mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi va chorvachilik mahsulotlari, ko‘ngilochar va madaniy mahsulotlar kabilar kiradi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda eng ko‘p sotiladigan tovarlarga quyidagilar kiradi: oziq-ovqat (35%), maishiy texnika (20%), to‘qimachilik (15%), qurulish materiallari (10%). Elektron tijorat ulushi: 5-7% atrofidagi ko‘rsatkichni tashkil etadi, lekin shuni ta’kidlab o‘tish joizki electron-tijoratning ulushi tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda.

Mamlakat ichki bozorlariga kirib kelayotgan mahalliy va import mahsulotlarining sifatini doimiy tarzda nazorat qilib boorish, iste’molchilarni sifatsiz va yaroqsiz mahsulotlar sotilishidan himoya qilish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada mamlakatimiz rahbariyati tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda va ko‘plab qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, 26-aprel 1996-yilda qabul qilingan “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bozorlar faoliyatini takomillashtirish va mahsulotlar sotish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 239-son qarori (2000 yil), 4-may 2018-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3724-son qarori, 30-noyabr 2022-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tovar-xom ashyo birjalarining faoliyatini tartibga solish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 687-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19-dekabr 2022-yildagi “Ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxlari barqarorligini ta’minlash hamda mahsulotlar xavfsizligi va sifatini tizimli nazorat qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 716-son qarori mana shunday hujjatlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ichki va tashqi bozorlardagi mahsulotlar sifatini ta’minlash va nazorat qilish masalalari ko‘plab olimlar va soha mutxassislarining ilmiy ishlarida dolzarb masala sifatida o‘rganib chiqilgan. Jumladan, A.A.Yadgarov tomonidan chop etilgan “Sifatni boshqarish” nomli darslikda mahsulot sifati va sifat ko‘rsatkichlari tizimi, sifatni boshqarish chet el tajribasi, sifatni boshqarishda standartlashtirishning o‘rni va ahamiyati kabi maslalar yoritib berilgan. D.O.Kerimbekova va J.B.Namazbekovalarning ishlarida zamonaviy sharoitda sifatning roli korxona va tashkilot darajasida sifat muammosini muvaffaqiyatli hal qilish vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek ISO 9000 xalqaro standartlariga asoslangan sifat menejmenti tizimini qo‘llash tavsiya etiladi [7]. L.V.Anufrievaning ishlarida esa har qanday tashkilot uchun, ayniqsa hozirgi

ISSN 3030-3907

bosqichda muhim deb hisoblangan mahsulot sifatini oshirish muammosi ko‘rib chiqilgan. Mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar va zamonaviy sharoitlarda mahsulot sifatini oshirish yo‘llari belgilab berilgan [8]. F.V.Anufrieva, P.S.Jukovalarning ishlarida oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta’minlashning dolzarb muammolarini tavsiflangan va tahlil qilingan, muammolarni hal qilish yo‘llarini taklif qilingan, shuningdek ushbu mavzuga oid nizolar bo'yicha sud amaliyotini o‘rganilgan bo‘lib, umuman olganda, sog‘lom ovqatlanish sohasidagi davlat siyosati yoritib berilgan [9].

Bundan tashqari P.R.Ismamatullayev, P.M.Matyakubova, M.N.Mag‘rupova, Sh.To‘rayev, U.A.Maxmonov, **N.I.Vatin, P.V.Makeev, A.G.Vegera, T.V.Samoplyas, K.S.Pozdyakova, Ye.A.Peretyagina, Ye.A.Karpenyalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida mahsulot sifati va uni nazorat qilish masalalariga e’tibor qaratilgan.**

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimiz ichki bozorlariga kirib kelayotgan mahalliy va import mahsulotlari salmog‘i kundan-kunga ortib bormoqda. 2024-yilda O‘zbekiston YAIM hajmi 1,454,573.9 milliard so‘mni tashkil etdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi YAIM umumiy hajmining 95,3% ini tashkil etdi va 6,6% ga o‘sdi. Bu o‘sishlarni tarmoqlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, sanoat tarmog‘ida qo‘shilgan qiymat 2024-yilda 6,8% ga o‘sdi. Jumladan:

- ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoati – 7,7% ga o‘sdi;
- elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash – 5,4% ga o‘sdi;
- suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – 5,6% ga o‘sdi;
- qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmi 467,041,5 milliard so‘mni tashkil etdi va 3,1% ga o‘sdi;
- xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 657,348,5 milliard so‘mni tashkil etdi va 7,7% ga o‘sdi .

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning YAIM o‘sishida o’ziga xos hissasi mavjud. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar sanoatning qayta ishlash sohasida faoliyat yuritadi va 2024-yilda ushbu soha 7,7% ga o‘sdi. Shuningdek, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat yuritishadi va 2024-yilda bu sohada 3,1% ga o‘sish kuzatildi. Mahalliy tadbirkorlar savdo, transport va boshqa xizmatlar ko‘rsatishda ham faol ishtirok etishmoqda. 2024-yilda xizmatlar sohasi 7,7% ga o‘sdi. Demak, yuqoridagi tarmoqlardagi o‘sish sur’atlari mahalliy ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi.

Iste’molchilarni sifatli va yaroqli mahsulotlar bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun O‘zbekiston ichki bozorlariga kirib kelayotgan

ISSN 3030-3907

mahsulotlarning sifatini ta’minlash va nazorat qilib borish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda va ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo bu borada ba’zi bir muammolar ham mavjud. Ana shunday muammolardan biri sifat nazorat tizimlarining yetarlicha rivojlanmaganligi hisoblanadi. Mahsulotlar, ayniqsa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, jumladan, dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan va bozorga kiritilayotgan mahsulotlar, shuningdek, yakka tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatini nazorat qilish mukammal yo‘lga qo‘yilmagan. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish va laboratoriya tekshiruvlarining qamrovi cheklangan, ayrim hududlarda zamonaviy laboratoriyalar mavjud emas.

Muammolardan yana biri mahalliy ishlab chiqaruvchilarning hammasi ham sifatga e’tibor bermasligidir. Raqobat kuchli bo‘lmagan joylarda yoki bozorni to‘ldirish maqsadida ishlab chiqaruvchilar arzon, ammo sifatsiz mahsulotlar bilan ichki bozorga chiqishadi. Sifat tizimlarini joriy qilish – qo‘shimcha xarajat talab qilgani sababli ba’zi korxonalar bunga e’tibor bermaydi.

Iste’molchilarning huquqiy ongi pastligi va iste’molchi madaniyatining yetarlicha shakllanmaganligi ham sohadagi muammolardan biri hisoblanadi. Ko‘p hollarda xaridorlar mahsulot sertifikati, ishlab chiqaruvchining rekvizitlari yoki mahsulot sifati haqida ma’lumot talab qilmaydi. Bu esa sifatsiz mahsulotlarga talab saqlanib qolishiga va ularning bozorlarga kirib kelishiga zamin yaratadi.

Eng dolzarb muammo – bu falsifikatsiya va kontrafaks mahsulotlar, ya’ni qalbaki mahsulotlarning bozorga kirib kelishi va tarqalishining oldini olish masalasidir. Falsifikatsiya va kontrafaks mahsulotlarining bozorga kirib kelishi O‘zbekiston bozorida muammolarni keltirib chiqaradi. Sifatli va xavfsiz mahsulotlar o‘rniga, past sifatli yoki zararli mahsulotlar iste’molchilarga yetkazilishi mumkin. Natijada iste’molchilar o‘rtasida noroziliklarning kelib chiqishiga, mashhur firmalar va korxonalarning obruyiga putur yetishiga sabab bo‘ladi.

Takliflar va mulohazalar. Yuqorida aytib o‘tilgan muammolarning yechimlari sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin:

-laboratoriya tizimlarini kengaytirish va zamonaviylashtirish lozim;

-sifat sertifikatlari bo‘yicha qat’iy nazoratni o‘rnatish;

-iste’molchilar huquqini himoya qilish tashkilotlarining faoliyatini yanada kuchaytirish;

-mahsulotlarning sifatini nazorat qilishda raqamli monitoring tizimlarini joriy etish (masalan, mahsulotni QR-kod orqali tekshirishni yo‘lga qo‘yish);

-xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish tizimini joriy etish.

ISSN 3030-3907

Xulosa. Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, har bir hududda zamonaviy va ixtisoslashgan tahlil markazlari tashkil etish, xalqaro ISO/IEC 17025, HACCP, GMP kabi sertifikatlarni joriy etish va talab qilishni kuchaytirish lozim. Shuningdek jamoatchilik nazorati organlari faoliyatini kuchaytirishga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Mahsulotlar sifati – nafaqat iqtisodiy raqobatbardoshlik, balki fuqarolarning salomatligi va ishonchini ta'minlash vositasidir. Shu sababli, sifat nazorat tizimini takomillashtirish strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent, 26-aprel 1996-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozorlar faoliyatini takomillashtirish va mahsulotlar sotish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 239-son qarori. Toshkent, 2000 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3724-son qarori. Toshkent, 4-may 2018-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tovar-xom ashyo birjalarining faoliyatini tartibga solish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 687-son qarori. Toshkent, 30-noyabr 2022-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxlari barqarorligini ta'minlash hamda mahsulotlar xavfsizligi va sifatini tizimli nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 716-son qarori. Toshkent, 9-dekabr 2022-yil.
7. A.A.Yadgarov. Sifatni boshqarish. Darslik. –T.: "Innavatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. -224 bet.
8. Д.О.Керимбекова, Ж.Б.Намазбекова. Значение качества продукции в современных условиях // "Экономические и правовые реформы. Проблемы и перспективы", сборник научных работ, Москва, 2013 г., стр. 152.
9. Л.В.Ануфриева. Проблемы и пути повышения качества продукции современных условиях - https://saransk.ruc.su/upload/Upload_Saransk/ Studium_2017/ Vipusk_2.0/Anufrieva.pdf
10. Ф.В.Ануфриева, П.С.Жукова. Актуальные проблемы обеспечения качества и безопасности пищевых продуктов // Вопросы Российской юстиции. Выпуск №22 - https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-problemy-obespecheniya-kachestva-i-bezopasnosti-pischevyh-produktov/viewer

ISSN 3030-3907